

## “BOBURNOMA” ASARI ASOSIDA KAYFIYAT KONSEPTINI IFODALASH

*Begoyim Abdusattorova*

*Andijon Davlat Chet tillari instituti 2-kurs magistranti*

[begoyimabdusattorova@gmail.ru](mailto:begoyimabdusattorova@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikda hozirda dolzarb bo'lgan konsept tushunchasi va “Boburnoma” asari orqali kayfiyat konsepti taxlil qilinadi. Konsept haqida umumiy tushunchalar berilib, asarda berilgan parchalar orqali kayfiyat konseptining umumiy tavsifi berilgan.

**Kalit so'zlar:** Kayfiyat, konsept, g'azab, quvonch, ijobiy kayfiyat, tushkun kayfiyat, Boburnoma, tilshunoslik, kayfiyat semantikasi.

**Annotation.** This article analyzes concept of mood through “Baburnama” and concept that is controversial in linguistics. In this article general ideas are given about concept and general exposition of mood concept is expressed through passages of Baburnama.

**Keywords;** Mood, concept, anger, joy, positive mood, pessimistic mood, Baburnama, linguistics, semantics of mood.

**Аннотация.** В данной статье анализируется понятие концепт, актуальное в настоящее время в языкознании, и понятие настроения через творчество “Бабурнама”. В этой статье даются общие представления о концепте, а общее изложение концепта настроения выражается через пассажи Бабурнамы.

**Ключевые слова:** Настроение, концепция, злость, радость, позитивное настроение, депрессия, Бабурнама, лингвистика, семантика настроения..

**Kirish.** Tilshunoslikda hozirgi davrda konsept tushunchasi dolzarb bo'lib, u mental tuzilma hisoblanadi va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar tuzilmasidir. Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini hosil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Uning tizimiy xususiyatlari tuzilish jihatidan murakkab tartibli bo'lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida namoyon bo'ladi.

**Asosiy qism:** Fanda konsept tushunchasi turli yondashuvlar asosida yoritiladi. A.Vejbitskaya so'zlariga ko'ra, konseptlarni mantiqiy-tushunchaviy asosida o'rganish insonning “voqelik” olami haqidagi madaniy bog'langan tasavvurlarini aks ettiruvchi ideal olamidagi obekt sifatida talqin qilish yotadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, konsept borliqdagi hodisa va obektlarning qanday tuzilganligi haqidagi tafakkur asosida yaratilgan tushunchani ifodalovchi fenomen sanaladi. Konsept madaniyatning asosiy birligi hisoblanib, inson ongida “madaniyat qaymog'i” ni namoyon qiladi va shu orqali madaniyat inson mental olamiga kirib keladi. Integrativ yondashuv konseptlarni lingvistik, kognitiv, kulturologik, sotsiologik nuqtai nazarlari orqali o'rganishga imkon beradi.

Ko'p hollarda kayfiyat tushunchasini og'zaki ifodalash uchun stilistik vositalardan foydalaniladi. Ko'proq ifodalash uchun mo'ljallangan konseptsiyani

ko'rib chiqishda mavzu asosiy 2 ta yo'nalishda ya'ni yaxshi va yomon ko'rinishda bo'ladi. Konsept zamonaviy tilshunoslikning har ikki yo'nalishi uchun ham, ya'ni lingvokulturologiya va lingvokognitologiyada faol qo'llaniladi. Bevosita matn konsept ifodachisi bo'la oladi chunki unda individual-muallifiy yondashuv hamda milliy mentallik belgilari ham o'z aksini topadi. Konsept ikki tomonli xususiyatga ega. Avvalo madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, so'ngra inson konsept orqali madaniyatga kiradi. Lingvokulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi va jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli manbalardan o'rganib chiqish jarayonida shuni bildimki, kayfiyat nisbatan uzoq davom etadigan shu bilan birga ijobiy va salbiy bo'yoqdorlikka ega hisoblanadi. Kayfiyat holatiga kiritilgan 2 ta muhim komponentni ta'kidlash joiz. Biror sabab yoki hodisa sabab ruhiy holatga ta'sir ko'rsatadi va shaxsning xulq atvoriga ta'sir qiladi.

Asosan kayfiyat tushunchasi birinchidan uni boshdan kechirayotgan subyekt va uning ortidagi motivga bevosita bog'liqdir. Kayfiyat semantikasi ikki shaklda ifodalangan tizim ya'ni yaxshi va yomon tizimga bo'linadi. Kayfiyat farqlanmagan umumiy fon sifatida [quvnoq yoki tushkun kayfiyat] yoki aniq farqlangan [zerikish, qayg'u, g'amginlik, qo'rquv yokida aksincha ishtiyoq, quvonch] asosida boshdan kechiriladi. Ijobiy kayfiyat quvonch, baxt, quvnoqlikni ifodalasa salbiy kayfiyatga qayg'u, g'azab, umidsizlik, nafrat kiradi. Misol uchun qayg'u so'zi orqali qayg'uli, qayg'uli kayfiyat. Masalan, kayfiyat konsepti quyidagicha ifodalanadi;

1. Shaxsning ruhiy xolatiga ma'lum vaqt davomida ta'sir qiluvchixissiy xolat.
2. Shodonlik, zerikish, qayg'u, xursandchilik.
3. Tushkun kayfiyat, yaxshi kayfiyat, eyforiya.

“Boburnoma” jimjimadorlikan yiroq, samimiy va sodda jumlar orqali ifodalangan bo'lsada, biroq tarixiy voqealik bayonida shoh va shoir Boburning mahorati yaqqol sezilib turadi. Bobur har bir tarixiy voqeaning xayotiy-real bo'lishi uning kayfiyati yozilgan to'rtliklarida, davra suhbatlarida berilishi va shu hissiyotni kitobxon ko'z o'ngida kelishi va his etishi Boburning ancha mahoratli ekaniga dalolat. Misol uchun Boburnoma asarida Qosimbek qavchin haqida **“Roi va tadbiri bisyor yaxshi edi. Xeyli mutoyaba qilur edi”** (he used to make entertaining jokes) shunday yozadi. Bunda mutoyaba ya'ni mutoyiba so'zi orqali bu shaxsning xushchaqchilikka moyilligi borligi ifodalangan. Shu bilan bir qatorda til vositalari hissiy bo'yoqdor va neytral bo'lishi mumkin.

**Muni degach, manga g'arib holate bo'ldi. Olamda jon vahmidin yamonroq nima bo'lmas emish** [On hearing this, my state of mind was miserable indeed, for well is it understood that nothing in the word is worse than fear for one's life] “Boburnoma” asaridan olingan bu parchada va uning ingliz tiliga qilingan tarjimasida g'arib va miserable so'zlari tushkun kayfiyatning ekspressiv ko'rsatkichi hisoblanadi, ya'ni bu so'zlardan foydalanish tufayli

kayfiyatning tushkunligi ifodalanadi. Holat va state of mind so'zlari neytral hisoblanib na ijobiy na salbiy bo'yoqdorlikka ega.

**Xisravshoh Qunduz qo'rg'onida edi. Inisi Valini bir pora o'bdon yigitlar bilan Ishkamish va Fulul va ul tog' domanalarig'a yiborib edikim, yana tashqaridin xaduk va tashvish bergay.** Bu yerda ishlatilgan xadik va tashvish so'zi orqali bu yerda bo'layotgan hodisa qanchalik tusda ekanligini bilish mumkin. Chunki bu so'zlar qo'rqinch kayfiyatini yana ham kuchliroq ifodalash uchun ishlatiladi.

“Boburnoma” asarida Boburning Umarshayx mirzo, Sultn Maxmud mirzo, Sulton Axmad mirzo, Boysunqur mirzo, Xusayn Boyqaro singari temuriy xukmdorlarning tab'i nazmi haqidagi taxlillari berilgan va Boburning bu shaxslarga bergan munosabatida ular to'g'risida ijobiy va salbiy bo'yoqdorlik bo'lgan. Misol uchun Boysunqur mirzo haqidagi “...nastaliq xatini xeyli xo'b bitur edi. Naqqoshlikda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. Odiliy taxallus qilur edi. She'riy devon tartib qilguncha bo'lmaydur edi... Samarqandda Boysunqur mirzoning g'azallari oncha shoyidurkim, kam uy , bo'lg'ay erdikim mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi” bu so'zlarida yosh umri xazon Boysunqur mirzoning bir necha xil ilmu hunarni maromiga yetkazib o'rganganligi , devon tuzib ulgurmay g'azallarining xalq tomonidan suyib o'qilishi haqidagi berilgan ma'lumotlarda Boburning ham faxr, ham nadomat tuyg'ulari bor. Chunki Bobur bunday mahoratli insonning vaxshiylarcha Xusravshoh tomonidan o'ldirilganini “... mundoq xushta'b va purfazilat va xasab va nasab bila orosto podshohzodani shaxid qildi ” deb yozadi. Hodisa esa shunday bo'lgan “ Xisravshoh Balxga yurish qilish davomida Boysunqur mirzoni Qunduzga chaqirib oladi. U avboj degan joyga yetganda badbaxt, noshukur Xisravshoh hukmronlik orzusida shunday qildi:- Axir pastkash, qobiliyatsiz, zoti-yu nasabi notayin, no'noq va shijoatsiz, noinsof va adolatsiz bu badbaxtga hokimiyat xayf emasmi! Boysunqur mirzoni beklari bilan birga tutib, Boysunqur mirzo bo'yniga arg'amchi soldi. **Axir pastkash, qobiliyatsiz, zoti-yu nasabi notayin, no'noq va shijoatsiz, noinsof va adolatsiz bu badbaxtga hokimiyat xayf emasmi!** bu jumlaning o'zida muallif orqali darg'azablik, nafratlanish ni kitobxon xis qilishi mumkin. Chunki bu yerda salbiy bo'yoqdorlik hissini ritorik so'roq gaplardan so'ng qo'llanilgan undov belgisi orqali yana ham oshirib shu holatni yaqqol namoyon qilish uchun ishlatilgan.

**Xulosa.** Hozirda tilshunoslikda eng ko'p uchrayotgan konsept atamasi haqida atroflicha o'rganish olib borish asnosida shuni bildikki bu mavzu juda chuqur va bir asar asosida konseptning bir qismi ya'ni kayfiyat konseptini ko'rib chiqdik. Bu asnoda Boburning qanday ichki kechinmalari bo'lsa mohirona kitobxoniga yetib borgani va uning qanchalik shoirtabiat inson ekanligi to'rtliklarda, suhbatlarda misollar asosida kayfiyat konsepti bilan bog'liq tarzda o'rganib chiqishga harakat qildik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Қаюмов, Х.Султанов, Б.Алимов. Халқаро Бобур фонди.-Т.: “O’qituvchi” НМИУ 2008.
2. Вохидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. –Т .: Шарқ,2007
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. –Т .: Шарқ, 2002
4. Зоҳидов В. Бобурнинг фаолияти ва илмий-адабий мероси ҳақида. Бобурнома. – Т.: ЎзССР ФА нашри, 1960.
5. Хўжаев Ф. “Бобурнома” анъаналари. // Адабий мерос. Т.: 1989.
6. Хасанов.Х. Бобур- сайёҳ ва табиатшунос-Т; Ўзбекистон.1983